

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA SHARQ
MUTAFAKKIRLARI MEROSDAN FOYDALANISH**

Rajabova Iroda Ilhom Qizi¹

¹ Axborot Texnologiyalari Va Menejment Universiteti

4-Kurs Bakalavr talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.05.2025

Revised: 30.05.2025

Accepted: 31.05.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

Xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot namunalari, xalq durdonalari, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, insof, diyonat mavzulari xalq durdonalarida o'z ifodasini topganligi, ular inson aql-zakovati, mehr-shafqati va uning buyuk yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalanishi va yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning dili va tilida saqlanib kelayotganligi yorqin ifoda etilgan. Xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyot namunalaridan o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini oshirishda foydalanish ijobiy natija berishi Alisher Navoiyning "Mahbub – ul qulub" asari orqali yoritib berilgan.

KIRISH. O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida ulug' shoirimiz va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Alisher Navoiyning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda halollik va tejamkorlik masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar o'z ifodasini topgan. Mutafakkirning tijorat va tejamkorlikka oid qarashlari uning «Mahbub ul-qulub» asarida bayon qilingan. Bu asarda Navoiy xiyonatchi, o'z foydasini ko'zlaydigan, elga qahatchilik tilaydigan, arzon olib, qimmatga sotib, ziyon etkazadigan olibsotarlarni la'natlaydi. U asarda odamlarni odob-axloqli, kamtar, kamsuqum, sharm-hayoli, insof-tofiqli, halol, pok, nafsini tiya oladigan bo'lishga da'vat etadi, odamiylikni yuksak darajada ulug'laydi.

Keyingi pand nasiatlarda A.Navoiy nafsni tiyish, takabburlik va manmanlik nodon odamlarga xosligi, o'rinsiz isrof qilishning saxiylik emasligi haqida so'z yuritadi. «Nafs ketiga tushgan-nafsoniyat manzilidagina to'xtaydi. Hech kim o'z ko'ngliga g'am tilamaydi va o'z nafsin qiyashni xohlamaydi».

Asarda xasislik insondagi eng yaramas sifat deb ko'rsatilgan va undan jirkanilgan. «Baxil odam molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Hasadchi esa o'z yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o'ziga o'zi bergen azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qiligidan dard chekadi».

Asarda A.Navoiy taqsimot munosabatlari, ularning adolatli tashkil etilishiga e'tiborni qaratadi, xususan xizmatga yarasha haq to'lash masalasi diqqat markazida turadi. U yasovul misolida shunday deydi:

«Yasovul shunday odamki, u mazlum, ezilgan kishini zolimning zulmidan qutqargay. Lekin yasovul bu xizmati uchun haligi mazlumdan ortiqcha haq olguday bo'lsa, u ham zulmkorning zulmiga kattakon sherikdir. Agar xizmatiga yarasha haq olish xayolida bo'lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir...».

Alloma savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish tutmaslikni talab qiladi. A.Navoiy odamlarni hunarli bo'lism, doimo harakat bilan yashash, tadbirkorlik, tejamkorlik xislatlarini egallahga undaydi. U bu haqda shunday deydi: «Har bir ishdan foyda kutganingda, uni bajarishda qiyinchiliklar va ikkilanishlar paydo bo'lsa, mashaqqati ozroq tomonga kuch ber, qiyinchiligidan ezilmaslik chorasini ko'r... Nodon o'gitida xato bo'lishi muqarrardir; dushman nasihatida allov bo'lishi shubhasizdir. Unisidan aldanma va bunisiga o'zingni aldatma».

Ko'rinib turibdiki, bu g'oyalarda tadbirkorlikning mazmuni, xosiyati chuqur mantiqiylik bilan bayon qilingan, ularda insonni aql-zakovat bilan ish yuritishga da'vat etilgan.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihatni bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratadi. U mulkni to'g'ri ishlash, isrofarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak deydi. Ana shunday odamlar to'q va farovon yashashlari mumkinligi haqida shunday deydi: «Isrof qilish-saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni-devona deydilar; yorug' joyda sham' yoqqanni aqldan begona deydilar...».

Quyidagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejamlilik va jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lism, isrofarchilikka yo'l qo'ymaslik natijasida farovonlikka erishilar ekan. «Har ishning bir sababi bordir. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishgina emas, ovqat, kishining qiliqlari, nutqida ham isrof bo'ladi, isrof tanni aldaydi, nafasini ranjitadi, aqlni qochiradi va tirikni o'ldiradi, ko'rmaysanmiki, chiroqning tirikligi yog' bilandir. Agar yog'ni haddan tashqari ko'p solsang, yog' pilikning boshiga chiqib, chiroqni o'chiradi, yog' esa chiroqning yonishiga sababchi edi, isrof jihatdan o'limiga sabab bo'ldi...».

Savdodagi to'g'rilik va savdogarlik haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: «Savdo ikki xildir, ikkovi ham xatarlidir: biri muomala, ikkinchisi musofirlikdir. Muomala o'rtoqlar (muqimlar)ga xosdirkim, kasod mollarni foyda ta'ma bilan sotib oladilar. Bu ishda mol xatarlidirkim, jasoratli va oldindan ko'rvuchi kishi kasod molni foyda umidi bilan olishi kerak.

Demak, har yo'l bilan savdogar o'zining moli va taniga ehtiyot bo'lishi, beparvo bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga, (savdogar) omonat va to'g'rilikni o'ziga odat qilishi zarur, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon etkazmasligi kerak va o'ziga tobe bo'lgan kishi bilan muomala qilgay. U shunday ulug' odam bilan muomala qilishi mumkinki, u odam diyonatli va muruvvatli bo'lgay, firibgar kishidan qochgay. Molning yaxshi va yomonini bilmagan va moli oz odam bilan muomala qilmagay. (Agar shunday odambilan muomala) qilsa, foydadan ta'ma qilmagay, toki ikkovining orasidagi do'stlik vayron bo'lmagay».

Keyingi nasihat esa savdo-sotiq ishida kishilarni birovning haqiga xiyonat qilmaslikka, rostgo'y hamda muruvvatli bo'lishga undaydi. «Savdoda yolg'on so'z aytmagil, kofir va musulmon orasida savdo vaqtida yolg'on so'z aytish ko'p yomon feldir. Sotmaguncha hech molni qo'ldan bermagil va muomalada sharm qilmagilkim, donishmandlar aytibdilarki, sharmdan ko'p umid va orzular hosil bo'lmos usidir. Lekinko'p bemuruvvat va behayo bo'lma, (bu) foyda bermaydi. Debdilarki, savdogarchilikning asli tasarruf va muruvvatdir. Chunki bular molni omon saqlashga sabab bo'lur».

Oldi-sotdida muloyim bo'lish, berilgan vadaga vafo qilish, xiyonat qilmaslik, bir marta xiyonat qilgan kishi el nazaridan qolishi haqida quyidagi nasihatda shunday maslahat beriladi:

«Ey farzand, xiyonatdan qochgilki, kimki bir marta xiyonat qilsa, unga hech kimning etimodi qolmaydi. To'g'rilikni o'zingga kasb qilib olgilki, to'g'rilik eng yaxshi ishdir. Oldi-sotdida muloyim bo'l va kishiga vada qilmagil, vada qilsang, unga xilof etmagil. Xaridorga yolg'on so'z demagil, rostini aytgil. Muomalada, birovga hujjat bergeningda yoki hujjat olganingda ehtiyot bo'l, hujjat berishni istasang, to haqingni qo'lga olmaguningcha hujjatni qo'lingdan bermagil».

Birovning haqiga xiyonat qilgan odam oxir oqibat o'zi zarar ko'rishi haqida quyidagi hikoyatda bayon etiladi. «Shunday eshitdimki, bir kishining qo'yи haddan tashqari ko'p edi. Uning nomusli va xiyonat qilmaydigan bir cho'poni bor edi. U har kuni qo'ylarni sog'ib, sutni qo'y egasining oldiga keltirardi. Qo'y egasi sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotib kelishni topshirardi. Cho'pon unga shunday nasihat qildi: «Ey xo'ja, musulmonlarga xiyonat qilmagilki, o'zingga zarar etkazasan». U kishi cho'ponning nasihatini eshitmadni va xiyonat qilaverdi. Bir kecha bahor vaqtida qo'ylarni sel oqadigan joyga qo'ydi vao'zi bir balandlikka chiqib uxbab qoldi. Ittifoqo, ko'p yomg'ir yog'di va sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldilar. Ikkinchini

kun cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: «Bugun nima uchun sut keltirmading?» Cho'pon: «Ey xo'ja, men senga sutga suv qo'shmagil degan edim, mening so'zimni aslo eshitmading. O'tgan kechasi sutga qo'shgan suvlaringning hammasi yig'ilib, sel bo'lib oqdi va qo'ylarni oqizib ketdi», -deb javob berdi».

Yana bir hikoyatda omonatga xiyonat qilmaslik haqida shunday nasihat beriladi: «Men shunday eshitganmanki, bir kishi kechasi sahar vaqtida qorong'ida uyidan chiqib ketdi va hammomga bormoqchi bo'lди. O'z do'stlaridan biriga: «Men bilan hamroh bo'lib hammomga borgil!»-dedi. U dedi: «Sen bilan birga boraman-u, ammo hammomga tushmayman, chunki mening bir zarur ishim bor». U kishi hamrohi bilan hammom tomonga qarab ketdi. Ikki ul ketgan joyga borib, hammomga boruvchi do'stiga bildirmasdan boshqa yo'lga kirdi. Hamrohi yolg'iz o'zi hammomga ketaverdi va do'stim bilan kelayotirman deb o'ylab boraverdi. Ittifoqo, bir o'g'ri u kishining izidan ketaverdi, u kishi buni do'stim deb fahmladi va uning qo'ynida yuz tillasi bor edi. Hammomning eshidiga tillani qo'ynidan chiqarib kecha qorong'isida tanimay haligi o'g'rige berdi va dedi: «Ey birodor, men hammomga kirib chiqquncha bu tilla senda tursin, hammomdan chiqqanimdan keyin menga topshirasan». O'g'ri tillani olib, o'sha joyda o'tirdi. U kishi hammomdan chiqib, kiyimlarini kiyib ketaverdi. O'g'ri uning orqasidan chaqirib dedi: «Ey javonmard, kel mendan oltinlaringni ol. Bugun men sening omonatingni saqlab o'z ishimdan qoldim». U kishi dedi: «Sen kimsan, bu oltin qanday oltin?» O'g'ri dedi: «Men bir o'g'riman, bu oltin sening menga topshirgan oltiningdir». U kishi dedi: «Agar sen o'g'ri bo'lsang, nima uchun bu oltinlarni olib ketmading?» O'g'ri dedi:

«Agar ming tilla bo'lsa ham, sendan andisha qilmay olib ketardim, lekin sen bu oltinni menga omonat topshirding. Omonatga xiyonat qilmoq javonmardlikdan emas».

O'tmishda hayotning iqtisodiy asoslarini o'rganishga xizmat qiladigan bilimlar oilalarda ota-onalar tomonidan hamda maktab va madrasalarda badiiy-ilmiy, tarixiy manbalar vositasida o'rgatilgan. Bu manbalarda kundalik hayotda uchraydigan barcha katta-kichik masalalar xoh u iqtisodiy, moliyaviy sohada bo'lsin, xoh ijtimoiy-mamuriy, qonunshunoslik doirasida bo'lsin o'z ifodasini topgan va hayotiy asosda tushunarli qilib ochib berilgan.

Halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, insof, diyonat mavzulari xalq durdonalarida o'z ifodasini topgan. Ular inson aql-zakovati, mehr-shafqati va uning buyuk yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Ular yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning tilida saqlanib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyot namunalaridan o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini oshirishda foydalanish ijobjiy natijalarini beradi.

Adabiyotlar:

1. Eshmurodova G.X.-1917-1941 yillarda Ozbekistonda bolalar yetimligini bartaraf etish muammolarining tadqiq etilishi. Ijtimoiy fanlar. Ilmiy, ijtimoiy va tarixiy fanlar jurnal.

2024 yil. 3-son. Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti. 15 bet

2. Eshmurodova G.X. Maktab-internatlarda bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, 2-son, 2024, International journal of science., Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, <http://www.worldlyjournals.com/>, 18 bet

3. Eshmurodova G.X., Problems of Training Pedagogues and Personnel in Orphanages of Uzbekistan in 1917-1941, best journal of innovation in science, research and development , ISSN: 2835-3579. Volume:3 Issue:10 | 2024 . www.bjisrd.com. 242-247 bet

4. Eshmurodova G.X., 1917-1941-йилларда Ўзбекистон етимхоналарида педагог-кадрлар тайёрлаш муаммолари Impak faktor 9.9,. Kielce 2024, Miasto Przyszłości. <https://www.miastoprzyszlosci.com/>. ISSN-L:2544-980X . 1073-1078 BET

5. Eshmurodova G.X., Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarning tadqiq etilishi, Корақолпогистон филиали “Муғаллим ҳам узликсиз билимленидириў” илмий методик журналининг 2024 йил № 5 сони, 15 бет

6. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Methodology of Spiritual Education in Primary Education Published:., American Journal of Alternative Education. ISSN: 2997-3953 (Online) Vol. 1, No. 10, Dec 2024, Available online at: <https://scientificbulletin.com/index.php/AJAE>. 113-116 b

7. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Spiritual Qualities of Primary School Students Volume 02, Issue 12, 2024 ISSN (E): 2994-9521., Excellencia –international multi-disciplinary journal of education.. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/2877/3333>

8. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M., Bobur ilmiy merosining yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishdagi urni,. Toshkent – 2025 O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy jasorati va merosining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari to‘plami // I jild 161-164 bet,

9. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M.Pedagogical technique in teacher activity March 2025 Impact factor: 2024: 7.75 Journal of Applied Science and Social Science eISSN: 2229-3213 pISSN: 2229-3205 Volume 15 Issue 03, <https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/834> 653-657 bet.

10. Eshmurodova G.X., Didactic game lessons March 2025 Impact factor: 7.75 Journal of Applied Science and Social Science pISSN: 2229-3205 Volume 15 Issue. <https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/835> 658-662 bet

11.Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Ўқитувчилик - шарафли касб. March, 2025 journal of international scientific research Volume 2, Issue. Online ISSN: 3030-3508. <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/1376> 114-118 betlar

12.Eshmurodova G.X., Berdiyarova M.Pedagogic to skills leader advantages. March, 2025 journal of international scientific research . Online ISSN: 3030-3508 Volume <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/1375>. 107-114 betlar

13. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Oliy ta'limda sirtqi ta'limning mazmuni, sifati: muammo va yechimlar.,2025 mart., Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnalni , IV son, <https://phoenixpublication.net/index.php/TTI/article/view/2915>. 142-146 bet

14. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M., Maktabgacha ta'limni modernizasiyalash taraqqiyot omili sifatida., 2025-03-25, IZLANUVCHI ilmiy-metodik jurnal / IV-son. <https://phoenixpublication.net/index.php/Izlanuvchi/article/view/2913> 79-84 betlar

15. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Oliy ta'limda muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi., YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI . Volume 2 Issue 6 21.03.2025 ISSN: 3030-3494. <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/2910>. 33-37 betlar

16. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M.. When using pedagogical communication-authoritarian, democratic and liberal styles appropriate application., Volume: Vol. 12 No. 03 (2025): Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2765>. 228-233 betlar

17. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. The importance of reforms in improving the quality of education 2025-03-24 International multidisciplinary journal for research <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/2792> 191-198 betlar

18. Eshmurodova G.X., Berdiyarova M. Raqamli texnologiyalarning tarixiy, falsafiy va psixologik tadqiqotlardagi o'rni va ularni tahlil qilish Qarshi-2025 yil , 14 may

O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Axborot texnologiyalari va menejment Universiteti, "Dehqonobod kaly zavodi" AJ, "Raqamli transformatsiya sharoitida Sun'iy intellektni rivojlantirish va zamonaviy matematikani o'qitish muammolari va yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami II qism, 74-78 bet

19. Eshmurodova G.X., Axmedova O. T. Pedagogik texnologiya va metodlar, International journal of science xalqaro ilmiy jurnalining 4-soni (vol. 2 no. 2, 2025) , [Https://worldlyjournals.com/index.php/ijs](https://worldlyjournals.com/index.php/ijs), 99-105 bet